

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Audiometrlarni metrologik tekshiruvdan o‘tkazish uchun avtomatlashtirilgan tizimga ega etalon kompleksini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Respublikada qo‘llanlayotgan audiometrlarni metrologik tekshiruvdan o‘tkazish (metrologik attestatsiyadan o‘tkazish, qiyoslash va kalibrlash) uchun zarur infra tuzilma yaratiladi; Audiometrlarni metrologik tekshiruvdan o‘tkazish natijasida insonlarni eshtish qobiliyatini tekshirishdagi aniqlik, ayniqsa yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni eshitish qobiliyatini skrining qilishdagi aniqlik ortishiga erishiladi. Audiometriya sohasida xalqaro tavsiyalar va standartlar bilan uyg‘unlashgan milliy standart ishlab chiqiladi. Audiometrlarni metrologik tekshiruvdan o‘tkazish uchun avtomatlashtirilgan tizimga ega etalon kompleksini yaratiladi; Audiometrlarni metrologik tekshiruvda o‘tkazishda qo‘llaniladigan namunaviy o‘lchash vositalari va ishchi etalonlarni kalibrlash xizmatlari joriy etiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ushbu kompleks yordamida olingan natijalar xorijiy milliy metrologiya institutlari natijalari solishtiriladi. Hozirda sog‘liqni saqlash sohasidagi qo‘llanilayotgan audiometrlarning metrologik kuzatiluvchanligi ta‘minlanadi.. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.